

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT
SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

“Kiritdi”

**O‘zbekiston davlat
san‘at va madaniyat
instituti rektori**

 N.B.Sayfullayev

“01” 06 2024-y



“Kelishildi”


**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta‘lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi**


“01” 06 2024-y



“Tasdiqlayman”

**O‘zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi**


“01” 06 2024-y



**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

60210200 – Kino-teleoperatorlik ta‘lim yo‘nalishi uchun

(sirtqi)

- 1. Kinoteleoperatorlik mahorati fanidan**
- 2. Fotokompozitsiya fanidan**

Toshkent -2024

Dastur O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Badiiy, o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2024 yil _____ -sonli majlis bayoni.

Tuzuvchi:

I.Meliqo‘ziyev “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasini mudiri, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor, kinooperator-kinorejissyor

Taqrizchilar:

A.Ubaydullayev O‘zDSMI “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasini dotsenti, s.f.n, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan Yoshlar murabbiysi

M.Matchanov O‘zbekiston kinoarboblar ijodiy uyushmasini raisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist

Kirish

60210200 – Kino-teleoperatorlik bakalavriat ta'lim yo'nalishiga kiruvchi bakalavrdagi ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihoni dasturi me'yoriy-huquqiy xujjatlar asosida shakllantiriladi va kirish imtihonlari unga muvofiq o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha kirish imtihonlari: har bir ixtisoslik uchun belgilangan qabul talablariga muvofiq ravishda o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha imtihon o'tkazilishining ketma-ketligi har bir institut qabul komissiyasi tomonidan belgilanadi va har yili qabul qilish qoidalari shakllantriladi.

60210200 – Kino-teleoperatorlik bakalavriat ta'lim yo'nalishiga o'qishga kirayotgan abituriyentlar ijodkorlik, fotografiya san'ati, kino san'ati, rassomlik, rejissyorlik, zamonaviy tasvirga olish foto-kinoapparatlari, badiiy fotografiya suratga olish, badiiy-g'oyaviy asar tanlashning zaruriy jihatlarini bilish, tushunish, his qilish iqtidoriga ega bo'lishi kerak.

Fanning maqsadi va vazifalari

60210200–Kino-teleoperatorlik bakalavrlilik ta'lim yo'nalishda kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning “Fotokompozitsiya”, “Kinoteleoperatorlik mahorati” fanlaridan ijodiy hamda amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy fanlaridan amaliy-ijodiy ishlardan ijodiy kinoteleoperatorlik mahoratiga oid ishlarni bajaradilar.

“Kinoteleoperatorlik mahorati” fani bo'yicha

“Kinoteleoperatorlik mahorati” fanidan kirish imtihonida abituriyentga savol-javob keng doiradagi savollar bo'yicha o'tkazilib, suhbat jarayonida ixtisoslik

bo'yicha abituriyentning fikrlashi, bilim doirasi, qiziqishi, kasbiy tasavvuri, fotoapparatlarni va kameralarni ishlata olishi, operatorlik qobiliyati tekshiriladi.

Abituriyentlar komissiyaga 15x22 sm o'lchamdagi 15-20 ta fototasvir taqdim etishlari kerak. Fototasvirlarda tasvirga tushgan personajlarning emotsional holati fotoportretlar bo'yicha qay darajada aks ettirilishi, uning psixologik modeli, tasvirga olish nuqtasini topib, tasvir mazmundorligini oshirish, kadrlardagi fonni topish hamda uyg'unlikni to'g'ri aks ettirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Bundan tashqari, peyzaj janridagi fototasvirlar ham qabul qilinadi. Qishloq, shahar va sanoat inshootlarining asl ko'rinishlari, arxitektura va landshaft elementlari ham fototasvirlarda aks ettirilishi mumkin. Yana sinov uchun muzeylar, jamoat va turar joy binolari interyerlari aks ettirilgan fototasvirlarni taqdim etish mumkin.

“Kinoteleoperatorlik mahorati” fanidan fotoetyud va janrli foto ishlarda abituriyentlarning kompozitsion tushunchalari, ularning kuzatuvchanligi, motiv va yorug'lik berish sharoitlarini tanlay bilish qobilyatlari o'z aksini topishi lozim.

Ijodiy imtihonga taqdim etilgan reportajli va janrli foto ishlarga katta e'tibor beriladi. Bu ishlar abituriyent qanday mavzu va syujet tanlaganligini, atrof-muhitni qanday tushunishini, zamonaviy hayot voqeligini fahmlash hamda aks ettirilgan manzaraning (hodisaning) tasvirga olish nuqtasini, rakursini, yirik yoki kichik planda ishlash qobilyatini, malakasini namoyon qiladi.

“Kinoteleoperatorlik mahorati” fanidan fototasvirga tushurish abituriyentning kichik hajmdagi o'z fotoapparatida amalga oshiriladi va fototasvirlar tartiban quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- 1) 5 dona rasm-gipsli byust (pavilonda sun'iy yorug'lik bilan tasvirga olinadi);
- 2) 5 dona rasm-portret kompozitsiyasi (pavilonda sun'iy yorug'lik bilan tasvirga olinadi);
- 3) 5 dona rasm-syujetli janrlar (tabiiy yorug'lik bilan tasvirga olinadi);
- 4) 5 dona rasm-mavzuli yoki voqea hodisali fotoreportaj (tabiiy yorug'lik bilan tasvirga olinadi).

Suhbat jarayonida jahon va o‘zbek kinematografiyasi namoyondalarining ijodi, o‘zbek kino san’atidagi yuksak asarlar, tasviriy va boshqa san’at turlari, jahon va o‘zbek adabiyotlariga oid savollar ham beriladi.

- kino san’atining, operatorlik kasbining paydo bo‘lish tarixini bilishi;
- kino janrlari va ularning xususiyatlarini bilishi;
- makro fotografiyaning turlarini bilishi;
- kinodramaturgiya haqida tushunchalarga ega ekanligi,
- kino optikalar turlarini bilishi;
- kinotexnika, tasvirga olish texnikasini tushunishi;
- kino kameralar turlari va imkoniyatlarini bilishi;
- kompozitsiyani tushunishi;
- natyurmortlarni suratga olishni bilishi;
- jahon kinosida ijod qilib kelayotgan kinooperatorlarni bilishi;
- video va televideniya raqamli texnologiyalar haqida tushunchaga ega ekanligi;

“Fotokompozitsiya” fani bo‘yicha

- foto san’ati tushunchasiga ega bo‘lishi;
- fotografiyaga doir barcha turdagi tasvirga olish apparatlari va yordamchi vositalarni bilishi;
- fototasvirga olish va uni qayta ishlash usullarini bilishi;
- fikrlashi va ijodiy qobiliyatini kengligi, fotografiya kompozitsiya, va adabiyotlarga oid ma’lumotlarga egaligi;
- tasvirni olishda foydalanilgan fotoapparatlar, fototasvirda targ‘ib etilayotgan g‘oya, kompozitsiya va yorug‘lik ishlatishdagi o‘z yondashuvlarini aniq ifoda etishi kerak;

Tasvirga olingan video rolikni yoki qisqa metrajli filmlarni montaj qila olish qobiliyati tekshiriladi.

Montaj faniga qo‘yiladigan talablar:

- Montaj tushunchasini bilishi kerak;
- Montajli tasvirga olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak;

- Montaj dasturlarini bilishi va foydalana olishi kerak;
- Fotosuratlarga kompyuter dasturlari yordamida ishlov berish malakasiga ega bo'lishi kerak.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

“Kinoteleoperatorlik mahorati” fanidan abituriyent kino san'atining, operatorlik kasbining paydo bo'lish tarixini bilishi, kino janrlari va ularning xususiyatlari, kinodramaturgiya haqida tushunchalarga ega bo'lishi, jahon kinosida ijod qilib kelayotgan kinooperatorlar, video va televideniya raqamli texnologiyalar haqida tushunchaga ega bo'lishi kerak.

“Fotokompozitsiya” fanidan foto san'ati tushunchasini, fotografiyaga doir barcha turdagi tasvirga olish apparatlari va yordamchi vositalarni bilishi, foto tasvirga olish va uni qayta ishlash usullarini bilishi, ijodiy komissiyaga taqdim etilgan fototasvirlarni ijodiy holatlar bo'yicha tahlil eta olishi; fikrlashi va ijodiy qobiliyatining kengligi, fotografiya kompozitsiyasi va adabiyotlarga oid ma'lumotlarga egaligi, tasvirni olishda foydalanilgan fotoapparatlar, fototasvir targ'ib etayotgan g'oya, kompozitsiya va yorug'lik ishlatishdagi o'z yondashuvlarini aniq ifoda etishi, fototasvirlardagi badiiy holatlarni qay darajada tushunishi, tasviriy san'at, fotografiya, badiiy tasviriy obrazlar to'g'risidagi umumiy tushunchalar bilishi; tasvirga olingan video rolikni yoki qisqa metrajli filmlarni montaj qila olish qobiliyati, montaj tushunchasini bilishi, montajli tasvirga olish ko'nikmasiga ega bo'lishi, montaj dasturlarini bilishi va foydalana olishi, fotosuratlarga kompyuter dasturlari yordamida ishlov bera olishi inobatga olinadi.

**Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish
quyidagi mezon asosida baholanadi:
“Kinoteleoperatorlik mahorati” fanidan**

T.r.	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Abituriyentning tashqi ko‘rinishi, odobi va muomala madaniyati	5
2.	Kino san’atining, operatorlik kasbining paydo bo‘lish tarixini bilishi	10
3.	Kino janrlari va ularning xususiyatlarini bilishi hamda kinodramaturgiya haqida tushunchalarga ega ekanligi	10
4.	Jahon kinosida ijod qilib kelayotgan kinooperatorlarni bilishi	9
5.	Video va televideniya raqamli texnologiyalar haqida tushunchaga ega ekanligi;	10
6.	Fototasvirlardagi badiiy holatlarni qay darajada tushunishi, tasviriy san’at, fotografiya, badiiy tasviriy obrazlar to‘g‘risidagi umumiy tushunchalari	10
7.	Yorug‘lik orqali suratga olinayotgan suratlarning hajmi, faktura va egiluvchanligini ko‘rsata bilishi: gipsli shakl, etyud, natyumort kabilar misolida	10
8.	Ijodiy tasavvur, tabiat manzaralarini badiiy fotografiyada ifoda etish qobiliyati	10
9.	Obrazli fikrlash darajasi va uning tasvirga olgan foto ishlaridagi ko‘rinishi	10
10.	Kompozitsiyada detal, yorug‘lik tonlari orqali fikrlarni metaforik ifodalash qobiliyati	9
	jami	93

“Fotokompozitsiya” fanidan

T.r.	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Adabiyotlarga oid ma’lumotlarga egaligi	3
2.	“Foto san’ati” tushunchasiga egaligi	5
3.	Fotografiyaga doir barcha turdagi tasvirga olish apparatlari va yordamchi vositalarni bilishi	10

4.	Foto tasvirga olish va uni qayta ishlash usullarini bilishi	7
5.	Fikrlashi va ijodiy qobiliyatining kengligi, fotografiya kompozitsiya va adabiyotlarga oid ma'lumotlarga egaligi	8
6.	Tasvirni olishda foydalanilgan fotoapparatlar, fototasvirda targ'ib etilyotgan g'oyaning aks etishi	10
7	Fototasvirga olishda kompozitsiya va yorug'lik ishlatishdagi o'z yondashuvlarini aniq ifoda etishi	10
8.	Montaj tushunchasini bilishi kerak, montajli tasvirga olish qobiliyatiga ega bo'lishi.	5
11.	Fotosuratlarga kompyuter dasturlari yordamida ishlov berish qobiliyatiga ega bo'lishi, montaj dasturlarini bilishi va foydalana olishi.	5
	JAMI	63

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

60210200 – Kino-teleoperatorlik ta'lim yo'nalishi bakalavriat bosqichiga hujjat topshirgan abituriyentlar uchun jadval asosida yakka tartibda tasvirga olingan ijodiy ishlari ko'rigi o'tkaziladi.

Ijodiy imtihonlar qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan 30 kishilik guruhlarda maxsus qurollar bilan jihozlangan xonalarda o'tkaziladi.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmuni faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

1. Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

2. Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 yil

3. Sh.M.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. 2017 yil

4. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda quramiz. 2017 yil.

5. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.

6. Зверева А. “Мастерство режиссёра” - учебное пособие. Москва 2002 г.

7. Тарковский А. “Уроки режиссуры” - учебное пособие. Москва 1993 г.

8. Уолтер Фостер “Основы анимации”- учебное пособие. Москва 2003 г.

9. Методы анимации лица. Мимика и артикуляция - учебное пособие.

Москва 2002 г.

10. М.Саймон “Как создать собственный мультфильм. Анимация двухмерных персонажей”- 2006 г.

11. Blain Brown. “Cinematography Theory and Practice” Darslik.USA 2004

12. Paul Wheeler “Practical cinematography” 2005 y. USA

13. Meliqo‘ziev I. Kino-teleoperatorlik mahorati (badiiy fotografiya shakllanish va taraqqiyot jarayonlari). Darslik. Toshkent 2017, Leson Pres.

14. А.Исмаилов “Кинотелеоператорское мастерство” - учебник. Ташкент, 2004 г.

15. А.Исмаилов “Живопись со светом в творчестве Витторио Старрапо” - учебное пособие. Т. 2005 г.

16. А.Головня «Кинооператорское мастерство» Москва. 1965 г.

17. А. Соколов «Монтаж кино и телефильмов» Москва. 2000 г.

18. Л.П.Дыко - «Основы композиции фотографии» Москва.1989 г.